kerak. Bu ularning bu jarayonni to‘liq tushunishlari kerakligini anglatadi hamda texnologik tizimlar ta’limni yaxshilaydigan o‘qitish usullari hisoblanadi. O‘qituvchilar onlayn o‘qitishning yaxshi usullariga qaratilgan ta'lim jarayonini to‘g‘ri qabul qilishlari kerak, shuningdek, ular ushbu raqamli platformalardan samarali foydalanishlari mumkin.

Shu bilan birga, vazirliklar zamonaviy texnologiyalar yetishmayotgan maktablar uchun moliya va resurslarni ustuvor vazifa qilib qo‘yishlari va yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash, raqamli bo‘shliqni yopishga yordam berish va barcha talabalarning texnologiyaga kirishini ta’minlashdan iboratdir. Birgalikda ishlash muhim ahamiyatga ega muammolarni o‘sish imkoniyatiga aylantirish, shu tariqa, raqamli ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim [7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-farmoni. “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4319-qarori. “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va fan sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-229-qarori. “Ta’lim tizimini raqamlashtirishni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

(4). “O‘zbekiston–2030” strategiyasi. “Davlat rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari”. 2023.

(5). Karimov, A. Multimedia texnologiyalari va biologiya fani: pedagogik yondashuvlar. Toshkent, 2020.

(6). Xolbekov, Sh. Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslari. Toshkent, 2021.

(7). Yuldoshev J. va G‘oyibnazarova A. “Urgent issues in using virtual learning tools to improve the effectiveness of the educational process”. Science and Education in Karakalpakstan. 2024, № 4/2.

Kalandarov Sardar Ibragimovich (pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti; e-mail: kalandarovsardar@mail.ru)

TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARI – YOSHLARNI TARBIYALASH ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqola yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlash jarayonini tahlil qilib, innovatsion yondashuvlar va amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim usullarini o‘rganadi. Milliy va xalqaro tajribalar asosida tadbirkorlik ta’limini boyitish hamda yangi metodologik yondashuvlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik ko‘nikmalari, yoshlar tarbiyasi, ta’lim tizimi, innovatsion yondashuv, iqtisodiy barqarorlik, ijodiy fikrlash, xalqaro tajriba, milliy qadriyatlar.*

Каландаров Сардар Ибрагимович (доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры педагогики и психологии Ургенчского государственного университета; e-mail: kalandarovsardar@mail.ru)

УМЕНИЯ И НАВЫКИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА – ОСНОВЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В статье анализируется процесс подготовки молодежи к предпринимательству, исследуются инновационные подходы и практико-ориентированные методы обучения. Предлагаются новые методологические подходы к обогащению предпринимательского образования на основе национального и международного опыта.*

Ключевые слова: *предпринимательские навыки, воспитание молодежи, система образования, инновационный подход, экономическая устойчивость, творческое мышление, международный опыт, национальные ценности.*

Kalandarov Sardar Ibragimovich (Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor of the Department of Pedagogy and Psychology at Urgench State University; e-mail: kalandarovsardar@mail.ru)

ENTREPRENEURSHIP SKILLS AND ABILITIES ARE THE FOUNDATIONS OF YOUTH

Annotation. *The article analyzes the process of preparing young people for entrepreneurship, studying innovative approaches and practice-oriented educational methods. On the basis of national and international experiences, enrichment of entrepreneurial education and new methodological approaches are proposed.*

Keywords: *entrepreneurial skills, youth education, educational system, innovative approach, economic stability, creative thinking, international experience, national values.*

Kirish. Hozirgi tezkor iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlar yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlashni ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishiga aylantirdi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligi yosh avlodning innovatsion fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga bog‘liq.

Xususan, tadbirkorlik ta'limi orqali yoshlarda ijodiy fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantirish zarurligi qayd etilgan. Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik ko'nikmalarini yoshlar tarbiyasiga integratsiya qilish, milliy qadriyatlar va xalqaro tajribaga asoslangan ta'lim mazmunini boyitish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari tahlil qilinadi.

Metodlar. Tadqiqotda yoshlar tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonlarini tahlil qilish uchun nazariy, empirik, statistik va innovatsion usullar qo'llanildi.

1. Nazariy usullar: adabiyotlar tahlili, taqqoslash va tahlil-sintez usullari orqali tadbirkorlikning asosiy komponentlari va milliy hamda xalqaro tajribalar o'rganildi.

2. Empirik usullar: so'rovnoma, kuzatish va eksperiment yordamida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan qiziqishi va amaliy mashg'ulotlar samaradorligi tahlil qilindi.

3. Statistik usullar: deskriptiv statistika va regressiya tahlili orqali ma'lumotlar qayta ishlanib, ta'lim dasturlarining samaradorligi baholandi.

4. Innovatsion usullar: interaktiv treninglar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yoshlar ko'nikmalari rivojlantirildi.

Natijalar yoshlarning qiziqishini oshirish va ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qaratildi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot yoshlar tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonlarini o'rganish va mazkur jarayonni takomillashtirishga qaratilgan bir qator usullardan foydalanish orqali amalga oshirildi. Olingan natijalar tadbirkorlikka oid ta'limning amaliy ahamiyatini, yoshlarning bu boradagi qiziqishi va ehtiyojlarini aniqlashda muhim rol o'ynadi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan nazariy, empirik, statistik va innovatsion usullarning har biri muhim ma'lumotlar to'plashga yordam berdi.

1. Nazariy tahlil natijalari. Nazariy tahlil davomida tadbirkorlik ta'limi bo'yicha O'zbekiston va xalqaro tajribalar o'rganildi. Milliy tizimda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga doir qonunchilik bazasi, o'quv dasturlari va metodologiyalar yetarli bo'lsa-da, amaliyotga joriy etish darajasi pastligi aniqlandi [2]. Xususan, o'quv dasturlarida nazariyaga ko'proq urg'u berilib, amaliy mashg'ulotlar va ijodiy loyihalar yetarli darajada tashkil qilinmayotgani kuzatildi. Taqqoslash orqali aniqlanishicha, rivojlangan davlatlarda tadbirkorlik ta'limiga integratsiyalangan yondashuv, ya'ni nazariya va amaliyotning uyg'unligi ta'minlangan. Bu esa yoshlarning nafaqat bilimga, balki real ko'nikmalarga ega bo'lishiga imkon yaratmoqda.

2. Eksperiment natijalari. Tajriba guruhlarida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan interaktiv treninglar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Ushbu mashg'ulotlar natijasida tajriba guruhidagi ishtirokchilarning bilim va ko'nikmalari sezilarli darajada oshdi. Jumladan, eksperiment boshida ishtirokchilarning 40 foizi tadbirkorlik faoliyatiga oid asosiy tushunchalarni bilgan bo'lsa, eksperiment yakunida bu ko'rsatkich 85 foizga yetdi. Amaliy topshiriqlarni bajarish samaradorligi tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 30 foizga yuqori bo'ldi.

Bu natijalar tadbirkorlik faoliyatini o'qitishda innovatsion yondashuvlar samarali ekanini isbotladi.

3. Statistik tahlil natijalari. Statistik ma'lumotlar yoshlarning tadbirkorlikka oid ta'limni qabul qilish va o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniq belgilash imkonini berdi.

Deskriptiv statistika orqali so'rovnomadan olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, yoshlarning tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishi va ehtiyojlari birlamchi darajada aniqlandi.

Regressiya tahlili natijalari esa innovatsion metodlarning yoshlarning bilim darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xususan, raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim olish samaradorligi 25 foizga oshgani qayd etildi.

4. Innovatsion usullar natijalari. Interaktiv treninglar va raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirilgan mashg'ulotlar yoshlarning amaliy ko'nikmalarini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatdi. Xususan,

Trening mashg'ulotlari davomida ishtirokchilar o'z biznes g'oyalarini ishlab chiqib, ularni hayotga tatbiq etishning amaliy rejasini ishlab chiqdilar. Simulatsiyalar orqali o'quvchilar real biznes muhitida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda faol ishtirok etdilar. Bu esa ularning muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechim topish ko'nikmalarini mustahkamladi.

Munozara. Yoshlarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda shaxsiy fazilatlar va jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar muhim rol o'ynaydi. Tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy muvaffaqiyat, balki jamiyat rivojlanishiga hissa qo'shish vositasi hamdir. Finlandiyaning korruptsiyaga qarshi tamoyillari bu jarayonda samarali model bo'lishi mumkin [4].

1. Hashamatdan voz kechish – oddiylik va halollik tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda muhimdir. Me'yoriy hayot tarzi yosh tadbirkorlarni mas'uliyatli bo'lishga undaydi.

2. Jamoat manfaatlarini ustuvor qo‘yish – shaxsiy manfaatdan jamiyat taraqqiyotini ustun qo‘yish tadbirkorlarning ijtimoiy javobgarligini oshiradi.

3. Resurslarni ehtiyotkorlik bilan boshqarish – samarali moliyaviy boshqaruv iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

4. Halollik va ishonch muhitini shakllantirish – adolat va halollikni targ‘ib qilish yoshlarni sog‘lom biznes muhitiga yo‘naltiradi.

5. Ta’lim va mehnatga asoslangan yutuqlar bilim va malaka orqali muvaffaqiyatga erishish tadbirkorlik taraqqiyotining asosiy omilidir.

Finlandiya tajribasiga asoslangan ushbu tamoyillar milliy ta’lim tizimida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda qo‘llanilishi mumkin. Ular halollik, mas’uliyat va ta’limga asoslangan yondashuvni rag‘batlantirib, jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish yoshlarning shaxsiy muvaffaqiyatiga va mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda nazariy, empirik va innovatsion yondashuvlar qo‘llanilib, natijalar shuni ko‘rsatdiki, tadbirkorlik ta’limi yoshlarda mas’uliyat, halollik, resurslarni boshqarish va ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishga yordam beradi. Finlandiyaning korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillari bu jarayonda asosiy o‘rin tutadi. Innovatsion yondashuvlar va amaliy mashg‘ulotlar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali. Kelajakda tadbirkorlik ta’limini rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha yangi strategiyalar ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning chiqishlari va qonunchilik hujjatlari.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash bo‘yicha milliy dastur.

(3). Каландаров, С.И. (1992). Москва. «Формирование интеллектуальных умений и навыков у школьников 7–9 классов на занятиях по гуманитарным дисциплинам (русский язык и литература в узбекской школе)». Диссертация на соискание учёной степени кандидата педагогических наук.

(4). Каландаров, С.И. (2024), Ургенч, «Хрестоматия по педагогике». Учебное пособие, автор доктор философии по педагогическим наукам, доцент кафедры педагогики и психологии.

(5). Подымова, Л.С. & Сластенин, В.А. (2024), Москва. Учебник и практикум педагогика. 3-е издание.

(6). Pikabu platformasi. Finlandiyaning korrupsiyaga qarshi tamoyillari. https://pikabu.ru/tag.

(7). OECD (Organization for Economic Co-operation and Development). Entrepreneurship Education in Schools in Europe: Status, Trends, and Challenges.

(8). UNESCO. Innovative Approaches to Teaching Entrepreneurship in Modern Education Systems.

(9). World Economic Forum. The Future of Jobs Report: Skills for Entrepreneurship.

Xaitov Azizbek Azamatovich (Buxoro davlat Pedagogika instituti doktoranti; azizbekxaitov5253@gmail.com)

IMOM AL-BUXORIY HADISLARI VOSITASIDA MA’RIFATPARVARLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SHAKL, METOD VA VOSITALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talaba-yoshlar tarbiyasida muhaddislar sultoni Imom al-Buxoriy ma’naviy merosining jahonshumul ahamiyati hamda alloma asarlarining yoshlar ta’lim-tarbiyasida ma’rifatparvarlik fazilatlarini shakllantirishhamda ijobiy fazilatlarni rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tahlillar asosida o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Imom Buxoriy, hadis, muhaddis, ma’rifatparvarlik, tarbiya, shakl, psixologiya, metod va vosita, pedagogika, pedagogik g‘oya, tarbiya, barkamol avlod, farzand tarbiyasi, ta’lim, ma’naviy meros.*

Хаитов Азизбек Азаматович (докторант Бухарского государственного педагогического института; azizbekxaitov5253@gmail.com)

ФОРМЫ, МЕТОДЫ И СРЕДСТВА РАЗВИТИЯ ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ КАЧЕСТВ ПОСРЕДСТВОМ ХАДИСОВ ИМАМ АЛЬ-БУХАРИ

Аннотация*. В данной статье исследуется мировое значение духовного наследия Имама аль-Бухари, которого называют «султаном хадисоведов», в воспитании студентов и молодежи, а также анализируются формы, методы и средства формирования просветительских качеств и развития положительных черт личности на основе произведений ученого, их роли в образовательном процессе молодежи.*